

SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE'RIYATINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

TerDu talabasi
Chorshanbiyeva Dilfuza

Annotasiya. Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasining milliy, shakliy hamda uslubiy jihatlarini Shafolat Rahmatullo Termiziy asarlari asosida tahlilga olingan. Nutq tovushlarining (aynan) undosh tovushlarning badiiy matnda poetik jihatdan qo'llanishi, ularning takrorlanishi natijasida ham sodir bo'lishi lingvistik tahlilga olingan. Badiiy nutqning ohangdorligi va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladigan fonopoetik vositalar ichida ana shunday tovushlar takrorining o'rni beqiyosligi asoslangan. She'riy matnlarda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi oid misollar misollar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar. Poetik nutq, nutqiy birlik, ijodkor poetik nutqi, o'zbek sh'riyati, shakily va uslubiy tahlil.

Dunyo tilshunosligida badiiy nutqni ijtimoiy-falsafiy, badiiy, lingvistik, lingvostilistik va lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganish sohasi uncha uzoq bo'lmasda, samarali tarixni bosib o'tdi. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy- tadqiqot ishlaridan olingan natijalar tilshunoslik fanini yangidan yangi ilmiy- nazariy xulosalar bilan boyitishga xizmat qilib keldi. Hozirgi kunda amalga oshiriladigan ishlar o'zbek tili leksikasining milliy, shakliy hamda uslubiy jihatdan rivoji uchun xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ijodkor poetik nutqini lingvistik o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mumtoz va zamonaviy adiblarimiz individual badiiy nutqi xususiyatlariga bag'ishlangan ishlarning soni ancha-muncha bo'lib, ular individual badiiy matni ilmiy tadqiqi orqali ona tilimizning muayyan nozik qirralarini namoyon etish uchun xizmat qiladi. "Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak". Mazkur fikrlar, albatta, o'zbek tilshunosligida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarga ham tegishlidir. Shu ma'noda o'zbek she'riyatining o'ziga xos ijodkorlaridan hisoblanmish Shafolat Rahmatullo Termiziyning serqirra ijodi ijtimoiy-falsafiy, badiiy, lingvistik, lingvostilistik va lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganilishga loyiq substansial tabiati bilan alohida ajralib turadi. Uning o'tkir falsafiy qimmatga ega va badiiyatning yuksak namunasi bo'lgan lirikasi, yirik dostonlari, betakror tuyuqlarini o'qigan kishi hayratga tushib, shoirning falsafiy-badiiy mahoratidan iftixor va mas'uliyat hissini tuyadi. Uning qalamida ona tilimiz xazinasida har bir so'z yangidan yangi imkoniyatlarini namoyon qiladi, beqiyos falsafiy mazmun va badiiy qiymat kasb etadi. Aytilganlar shoir she'riyatini turli lingvistik aspektlarda o'rganishni taqozo qiladi. Shafolat Rahmatullo Termiziy she'riyati leksikasini ilmiy tadqiq qilish ijodkor she'rlarining tarixiy-etimologik qatlamlarga munosabatini belgilash, qo'llangan so'zlarning serqirraligi, emotsional-ekspressiv xususiyatlarini tadqiq qilish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida ham muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini aniqlashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, bu borada R.Qo'ng'irov, I.Qo'chqortoyev, Q.Samadov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Yo'ldoshev, X.Doniyorov, S.Mirzayev, L.Abdullayeva, E.Qilichev, I.Mirzayev, P.Qodirov, S.Karimov, B.Umurqulov, d.Shodiyeva, P.Normurodov, M.Yo'ldoshev, G.Keldiyorova, D.Ne'matova Y.Sayidov, F.Bobojonov, G.Muhammadjonova, S.Boymirzayeva, A.Sabirdinov, L.Jalolova, M.Qosimova kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Tadqiqotlarning kata qismi nasriy asarlar tilini o'rganishga bag'ishlangan. Bu ishlarning ilmiy saviyasini inkor etmagan holda, nazmiy asarlar lingvopoetikasiga ham e'tiborni kuchaytirish badiiy nutq lisoniy tarkibini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlamoq joizdir.

Shafot Rahmatullo Termiziy she'riyati esa adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham lingvistik nuqtai nazardan ham deyarli o'rganilmagan bo'lib, shoir she'riyati leksikasining emotsional-ekspressiv xususiyatlari alohida tadqiq manbai bo'lmagan.

"Matn lingvistikasi" fan sifatida shakllangandan so'ng uning asosiy o'rganish obyekti sifatida, albatta, matn olinadi. Bunday matnlarning eng asosiy manbasi sifatida esa, badiiy asarlarni ko'rsatish mumkin. Badiiy matnlari tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish esa lingvopoetika deb nomlangan alohida sohaning asosiy o'rganish sohasi hisoblanadi.

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtai nazardan tushunish uchun asos bo'ldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning ijodlar, badiiy asarlar bilan boyimoqda. Binobarin, ularning eng manzur va e'tiborga sazovorlari asosida lingvopoetik tadqiqotchilikni faol yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham taalluqlidir. Bu sohani o'rganishdagi ko'plab qonun- qoidalar, til materialini doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan amalga oshgan bo'lsa-da, tilning sotsiallingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog'liq.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va osonlikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to'g'riligidan ko'ra, ko'proq qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik va leksik so'zlarni qo'llash bir qancha osonlikni va ravonlikni ta'minlaydi.

Badiiy asarning asosiy unsuri soʻz, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam sanʼat darajasiga koʻtara olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qoʻllay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini oʻrganish, birinchidan, adibning mahoratini oʻrganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili taʼsirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada taʼsir koʻrsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Badiiy asar fonetikasi haqida gap ketar ekan, uning yozilish vaqti, oʻrni, shu makon va zamonga xos til xususiyatlari, tovushlar miqdori va variantlari, fonetik qonuniyatlari, tovush juftlari hamda boshqa xususiyatlari, qaysi tildan olinganligi yoki oʻz qatlam tovushi ekanligi, urgʻu tushish oʻrinlari, boʻgʻinning holati, ohang jihatlari kabi xususiyatlar haqida fikr yuritiladi.

Bilamizki, tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. Ular bir-biriga manba beruvchi sohalar hisolanadi. Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli boʻlib, badiiy asarda qoʻllangan lisoniy birliklarning (fonetik, leksik, morfologik) badiiy-estetik vazifalarini, tilning emotsional-ekspressiv vazifasini tadqiq etadi. Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida eʼtibor qaratish kerak boʻladi. Sheʼriy matnda nutq tovushlarining badiiy-estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki sheʼrda oʻziga xos jozibador ohang boʻladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy jihatdan noodatiy qoʻllash natijasida erishiladi. Sheʼriy matnlarda, asosan, fonetik vositalarning alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi usullardan foydalaniladi? Nasrda unlilarni choʻzish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik taʼminlanadi.

Nutq tovushlarining (aynan) undosh tovushlarning badiiy matnda poetik jihatdan qoʻllanishi, ularning takrorlanishi natijasida ham sodir boʻladi. Badiiy nutqning ohangdorligi va taʼsirchanligini taʼminlashga xizmat qiladigan fonopoetik vositalar ichida ana shunday tovushlar takrorining oʻrni beqiyos hisoblanadi. Sheʼriy matnlarda misralar, undagi soʻzlar hamda boʻgʻinlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qoʻllanishi alliteratsiya deb ataladi.

Bir xil yoki bir-biriga yaqin maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar sinonimlar deb ataladi. Masalan, chiroyli, barno, goʻzal, suluv va hokazo. Sinonimlar bir turdagi narsa yoki hodisaning har xil belgilarini nazarda tutib ifodalashi uchun har doim ham ularning maʼnolarini bir-biriga aynan toʻgʻri kelavermaydi. Ular bir-birlaridan stilistik-semantik xususiyatiga koʻra maʼlum darajada farqlanadi. Shuning uchun tillarda mutlaq sinonimlar yoʻq deb hisoblanadi. Agar mavjud boʻlgan taqdirda ham vaqt oʻtishi bilan ulardan biri baribir isteʼmoldan chiqib ketadi. Xullas, sinonimlar maʼnodosh soʻzlar hisoblanib, bir oʻzlari ifoda qilayotgan soʻzlarning narsa va hodisalarning turli xil belgilarini ifodalaydi. Lekin ularda qoʻshimcha maʼno nozikliklaridagi farqlari mavjud boʻladi. Ularni birlashtirib turuvchi narsa sinonim soʻzlardagi yetakchi, bosh maʼno hisoblanadi. Maʼnodosh soʻzlar yigʻilib, sinonimik qatorni tashkil etadi.

Sinonimlar, asosan, ikki yoʻl bilan hosil boʻladi. Birinchisi, tilning oʻz ichki imkoniyatlari asosida, jumladan, katta-ulkan, ulugʻ-buyuk va boshqalar. Ikkinchisi, oʻzga tillardan oʻzlashgan soʻzlar hisobiga, masalan, dalil-fakt, reja-plan va hokazo. Sinonimlarning paydo boʻlishi tilning lugʻat tarkibini boyib, yangilanib borishiga imkon yaratadi.

Sinonim so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning emotsional ekspressiv vazifasini yanada to'liq bajara olishiga imkon beradi. Bu qadim zamonlardan buyon idrok etilgan. O'zbek tili sinonim so'zlarga juda boy til hisoblanadi. Ijodkorlar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga mos keladigan muvayyan so'zni topib o'z asarlarida qo'llashga harakat qiladilar. Shu tariqa, lirik qahramonning, personajlarning ruhiyati hamda tasvir obyektining eng mayda qirralarigacha kitobxonga aniq ko'rsatib berishga harakat qiladilar. Badiiy va she'riy matnlardagi ma'nodosh so'zlarni tahlil qilishda, asosan, ikki holatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri, muallifning ikki yoki undan ortiq sinonim so'zlardan ifodalanayotganda mazmun uchun eng munosib birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi, ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq sinonim birliklarni muallifning badiiy maqsadiga ko'ra uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008. 20. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. doktori diss. avtoref. –T.: 2009. 21. Sarimsoqov B. Badiiylik mezonlari. –T.: Fan. 1996.
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O'qituvchi, 1995. 23. Normurodov R. SHukur Xolmirzaevning metaforadan foydalanish mahorati. O'zbek tili va adabiyoti. 2002. № 6.
3. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1978.
4. Eltazarov J. Tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv. - Samarqand, 2004.
5. Yusubova R.N. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida): Filol. fan. nomz. ...dis avtoref. - Toshkent, 2011.
6. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – T.: O'qituvchi, 1996.
7. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. -T.: 1976. 29. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -T.: 1982.
8. Рубайло А.Т Художественные средства языка. – М.,1961.